

**TURKIY TILLARDA IDISH NOMLARINI IFODALOVCHI XITOYCHA
O‘ZLASHMALAR**

Shoira USMANOVA

Filologiya fanlari doktori,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori

usmanovashoira89@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-2608-4577>

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy tillar va shevalardagi ayrim idish nomlarini ifodalovchi xitoycha o‘zlashmalar tadqiq etilgan. Xitoycha o‘zlashmalar mo‘g‘ul, tungus-manjur, koreys va yapon tillaridagi variantlari bilan qiyoslanilib, ularning ma’nolari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada xitoycha o‘zlashmalarning etimologiyasi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, oltoy tillari, ma’no, shakl, idish, variant.

KIRISH. Turkiy xalqlar xitoyliklar bilan qadim davrlardan boshlab yaqin qo‘shnichilik, savdo-sotiq va h.k. munosabatlarda bo‘lib kelgan. Bunday aloqalar turkiy tillar maishiy leksikasining xitoycha o‘zlashmalar hisobiga boyishini ta’minlagan. Turkiy tillarning xitoycha maishiy o‘zlashmalari orasida uy-ro‘zg‘or buyumlari, xususan, turli idish-tovoqlarni ifodalovchi leksemalar miqdoran ko‘pligi bilan ajralib turadi. Quyida ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

TAQAN so‘zi qoraxoniylar turkiysida “qozon” ma’nosida zikr qilingan. Hozirgi zamon turkiy tillarida, xususan, boshqird va tatar tillarida *tayan*, turkman tilida *tāgan*, yoqut tilida *taḤān*, tuva tilida *tagan*, xakas tilida *tahan*, o‘zbek tilida *tayon*, turk tilining shevalarida *dayan*, qozoq tilida *tayan*, oyirat tilining shevalarida *tayan* (<http://starling.rinet.ru>) “qozon, chovgun kabi idishlarni olovga qo‘yish yoki osishga moslashtirilgan uch oyoqli qurilma” ma’nosida keng qo‘llaniladi.

M. Rasanen (Räsänen 1955: 134) turkiy tillardagi *tagan*, *tayan* va shu kabi shakllarni *tak*- “taqmoq” o‘zagidan tarqaganligini qayd qilgan. Oltoy tillarining etimologik lug‘atida (<http://starling.rinet.ru>) turkiy tillardagi *tagan* va uning fonetik variantlari evenki tilidagi *tukta* “tirgak”, even tilidagi *toqʻruqan* “tirgak”, manjur tilidagi *tuqda* “xari” qadimgi yapon tilidagi *tukuwe*, Tokiyo dialekti: *tsùkue*, Kioto dialekti: *tsúkúé*, Kagoshima dialekti: *tsukúe* “stol” bilan qiyoslanib, ularning proto-shakli **tiāk`ù* “raf” ko‘rinishida qayta tiklangan.

Biroq mazkur etimologiya bir necha sabablarga ko‘ra asosli bo‘la olmaydi. Birinchidan, hosil qilingan qatordagi unlilar (a, o, u) ham, morfemalar ham bir-biriga mos tushmagan. Ikkinchidan, qiyoslangan leksik birliklardagi ma‘nolar yagona sema ostida birlasha olmagan. Uchinchidan, qoraxoniylar turkiysida *taqan* “qozon” ma‘nosida qayd qilingan.

Demak, leksemaning birlamchi ma‘nosini “raf”dan emas, balki “qozon” semasidan izlash o‘rinli bo‘ladi.

Ko‘rsatilgan sabablar turkiy tillardagi *tayan*/*tagan* so‘zini xitoycha *tagōan* 茶罐 “chovgun”dan (Phyojungugodesajon, I, 1338) kelib chiqqan deyishga asos bo‘ladi. Mazkur leksik birlik *da*茶 “choy” va + *gōan* 罐1. “bo‘yoq, yog‘ va shu kabilar solish uchun tunukadan qilingan idish”; 2. “kaolindan tayyorlangan chelak yoki chovgun” (Phyojungugodesajon, I, 565) kabi ikki iyeroglifning birikuvidan yuzaga kelgan.

Qayd etilgan *tagōan* 茶罐so‘zi oltoy tillariga quyidagicha o‘zlashganini ko‘rish mumkin: koreys tilida *tagōan* “chovgun” (Phyojungugodesajon, I, 1338), evenki tilida *tayan* “chovgun yoki qozonni olovning ustiga osib qo‘yish uchun uch oyoq”; “chovgun yoki qozonni gulxanga osib qo‘yish uchun yerga tiqib qo‘yilgan egik tayoq”, buryat tilida *tagaan* “uch oyoqli temir o‘choq” (Sravnitelniy slovar tunguso-manchjurskix yazikov, II, 150). Shuningdek, bu so‘zni rus tiliga ham *tagan* “podstavka dlya kotla” (Shamskiy 1971: 435) ma‘nosida o‘zlashganligi kuzatiladi.

Demak, *tagan* < *tagōan* xitoyliklarning o‘troq turmush tarzida “chovgun” vazifasida qo‘llanilgan va qoraxoniylar turkiysiga “qozon” ma‘nosida o‘zlashgan.

Uning “qozon, chovgun kabi idishlarni olovga qo‘yish yoki osishga moslashtirilgan uch oyoq” ma‘nosi keyinroq tungus-manjur, mo‘g‘ul va turkiy xalqlarning ko‘chmanchilik hayoti natijasida orttirilgan.

Turkiy tillardagi *tayan* leksemasi qo‘shma so‘zlarning tarkibida ham kuzatiladi. Masalan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida “yog‘och yoki temir kosa” ma‘nosida *tostayan* (Ishayev 1977: 160) leksik birligi qo‘llaniladi. *Tostayan* so‘zi < *tos* “qayin po‘stlog‘idan qilingan idish” va *tayan* “metall idish” so‘zlarining qo‘shiluvidan hosil qilingan. Shuning uchun u ham yog‘och, ham temir kosa vazifasini bajaradi.

ČÖGŪN – choy, suv qaynatiladigan metall idish. Mazkur leksema o‘zbek tilida “o‘choqda choy qaynatish uchun moslangan idish, choydush, qumg‘on” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, II, 376) ma‘nosini anglatadi. Turk tilining Kayalik shevasida *čuğun*, Bo‘lukbashi shevasida *đuğun* “choydush” (Acıpayamlı 1976: 31), uyg‘ur tilida *čögün* “cho‘yan ko‘za”; “cho‘yan chovgun” (Nadjip 1968: 394), qirg‘iz tilida *čöögün* “chovgun” (Kirgiz tilinin tushundurmo sozdugu, 703), qozoq tilida *šäjügin*, qoraqalpoq tilida *šəogim* “olovda choy, suv qaynatishga moslashtirilgan temir idish” (Ismoilov 1990: 36) ma‘nolarida uchraydi. O‘zbek tilining Namangan shevasida *čögün* “chovgun” (Aliyev 1974: 192), turk-qaltatay shevasida *čəvgin* “sirlangan metallidan qilingan choynak”, uyg‘ur tilining Turfon shevasida *čoqun* “choynak”, Xo‘tan shevasida *čögün* “cho‘yan idish”, *čüyün* “cho‘yan yoki mis idish” (Malov 1961: 173), teleut va oyrot tillarida *čojgon* “temir ko‘za”, “choynak”, boshqird tilida *säjgün* “choynak” ma‘nolarida ishlatiladi. Shuningdek, ozarbayjon tilida *čoğun*, qoraim tilida *čüyün* “qozon” ma‘nosida uchraydi. XVIII asrda turkiy tillardan rus tiliga *chugun* shaklida o‘zlashganligi kuzatiladi.

Oltoy tillarida, xususan, evenki tilida *čunğun* “chuqur idish”, koreys tilida *čagōan* “choy qaynatiladigan metall idish” (Phyojungugodesajon, III, 5911) ma‘nolarida keladi.

Qayd qilingan shakllarni M. Rasanen (Räsänen 1969: 113) *čojun* “cho‘yan”ga bog‘lab, xitoycha *t’siu ~ choi* + *kāng* “metall idish < cho‘yan”dan kelib chiqqan deb

ko'rsatadi. Bu leksemaning xitoycha o'zlashma ekanini N.A.Baskakov (Baskakov 1987: 4) ham qayd qilgan. I. Ismoilov (Ismoilov 1990: 38) *chovgun* so'zini u ishlangan material cho'yanga bog'lash asosli ekanligini aytgan.

Xitoy tilida chovgunning aniqroq shakli *čagōan* 茶罐 bo'lib, u "choy qaynatiladigan metall idish" (Phyjungugodesajon, III, 5911) ma'nosida izohlanadi. *Čagōan* 茶罐 < *ča* 茶 'choy' (Phyjungugodesajon, III, 5910) + *gōan* 罐 1. "bo'yoq, yog' va shu kabilar solish uchun tunukadan qilingan idish"; 2. "kaolindan tayyorlangan chelak yoki chovgun" (Phyjungugodesajon, I, 565) dan tashkil topgan.

TADQA – suv qaynatish uchun ishlatiladigan metall idish. Turkman tilida *tanqa* "suv qaynatish uchun xonaki usulda cho'yan yoki temirdan yasalgan qumg'on", o'zbek tilining Xorazm, xonqa shevalarida *tanqa* "choydish, cho'yandan qilingan suv idish", tatar tilining shevalarida *tanqan* "choynak" ma'nolarida ishlatiladi. Shuningdek, *tanqa* leksemasining uyg'ur tilida *danqal* "cho'yan xumcha" (Nadjip 1968: 436) va o'zbek tilining O'sh gruppasi shevalarida *danqal* "misdan ishlangan choynak" (Farmonov 1961: 66) fonetik shakllarini uchratish mumkin.

Qayd qilingan *tanqa* leksik birligi oltoy tillarida ham keng tarqalgan. Masalan, mo'g'ul tilida *danx(an)* "choynak" (Luvsansendev 1957:145), evenki tilida *tanqa* "ko'za" (Sravnitel'nyy slovar tunguso-manchjurskix yazikov, II, 163), koreys tilida *tanqi* "sho'rva pishiradigan idish" ma'nosini (Phyjungugodesajon, III, 6361) bildiradi.

Xullas, oltoy tillaridagi *tanqa/ tanka/ tanqi* va shunga o'xshash shakllarning tarqalish markazi Xitoy bo'lgan. Qiyoslang: *tan* 湯 "sho'rva" (Phyjungugodesajon, III, 6360) -*ki* 器 – buyum nomi yasovchi qo'shimcha (Phyjungugodesajon, I, 860), ya'ni *tanqa* < *tanqi* xitoy tilida "sho'rva pishiradigan idish"ni ifodalagan.

TUD – suv solinadigan katta idish; suv, choy va sho'rva qaynatiladigan qumg'on. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida *tüñ* "misdan yasalgan suv

idishi” (Ishayev 1977: 162), uyg‘ur tilida *tun* “bochka”, uyg‘ur tilining shevalarida “qopqoqli ko‘vacha” (Nadjip 1968: 338), qoraqalpoq tilining Qubla dialektida *tün* “suv quyish uchun temirdan ishlangan buyum” (Dospanov 1977: 252), turkman tilida “misdan yasalgan bir tutqichli katta suv idish” ma‘nolarini ifodalaydi. Turkiy tillarning qator lug‘atlarda *tün* “suv va may idishi”, *tun* “bochka”, *tün* “may idishi” deb izohlangan. O‘zbek tilining Gurlan shevasida *dünül* “sut solinadigan idish” fonetik varianti ham ko‘zga tashlanadi.

Tün so‘zi –*ça* /-*çe*/ -*şe* kichraytiruv qo‘shimchasini biriktirib, hajm jihatidan kichik idishlarni ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilining shevalarida *tünçä* “ko‘zachaga o‘xshash kichik sopol idish”, turkman tilida *tünçe* “suv, choy qaynatish uchun ishlatiladigan kichik qumg‘on”, uyg‘ur tilida *tünçä* “yog‘och bochka” ma‘nolarida iste‘mol qilinadi. Bular bilan birga, o‘zbek tilining Xorazm shevalarida *tümçä* “choydish, sho‘rva qaynatiladigan qumg‘on”; “sho‘rva pishiradigan qumg‘on”, qoraqalpoq tilining Qubla dialektida *tümçä* “misdan yoki alyuminiydan ishlangan, o‘tda suv qaynatishga moslangan buyum”, *dümşe* “suv qaynatiladigan mis ko‘za” singari fonetik shakllarda ham uchraydi.

Turkiy tillardagi *tün* va shu kabi shakllar oltoy tillarida quyidagi ko‘rinishlarga ega: udey tilida *tunž’a* “silindr shaklidagi idish” (Sravnitelniy slovar tunguso-manchjurskix yazikov, II, 215), koreys tilida *tun* “kanopdan to‘qilgan yumaloq, ichi chuqur idish” (Phyojungugodesajon, I, 1706), koreys tilining Pyongbuk shevasida *tunku* Xamkyong shevasida *tunki* “ichiga ko‘p suv quyib ishlatiladigan doshqozon yoki chan” (Phyojungugodesajon, I, 1706), *ton* “yog‘och, metall yoki plastmassadan tayyorlangan ichi chuqur idish, bochka” (Phyojungugodesajon, III, 6419), mo‘g‘ul tilida *ton* “uy-ro‘zg‘or buyumlari, lash-lush”, *tonog* “barcha turdagi idish-tovoq, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari” (Ramstedt 1935: 400) ma‘nosida kuzatiladi.

Ko‘rib chiqilgan *tun*/ *tün*/ *ton* leksik birligi oltoy tillariga xitoy tilidagi *ton* 桶 “bochka, chelak”dan o‘zlashgan. Chunonchi, uyg‘ur va koreys tillarining

lugʻatlarida (Nadjip 1968: 338, (Phyojungugodesajon, III, 6419) *tuy/ toy* soʻzi xitoycha oʻzlashma sifatida zikr qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиев А. Ю. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. Тошкент: Фан, 1974. – 217 б.
2. Баскаков Н. А. К проблеме китайских заимствований в тюркских языках // *Turcica et orientalia*. Vol.1. – Istanbul, 1987.
3. Доспанов О. Қарақалпақ тили Қубла диалектининң лексикасы. – Нөкис: “Қарақалпақстан” баспасы, 1977. – 264 б.
4. Жўраев Ҳ. Ўзбек тили турк-калтатай шевасининг фонетик ва лексик хусусиятлари. –Тошкент, 1981.
5. Исмоилов И., Мелиев К., Сапаров М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот. – Тошкент: Фан, 1990. – 257 б.
6. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1977. – 176 б.
7. Кыргыз тилинин түшүндүрмө сөздүгү. – Фрунзе: «Мектеп» басмасы, 1969. – 775 б.
8. Наджип Э.Н. Уйгурско-русский словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1968. – 828 с.
9. Сравнительный словарь тунгусо-маньчжурских языков / В.А. Горцевская, В.Д. Колесникова и др. Под ред. В.И.Цинциуса. – Л.: Наука, 1975-1977. I. – 672 с.; II. – 471 с.
10. Фармонов И. Ўш шевасининг фонетик ва лексик хусусиятлари // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1968.
11. Чэнь Чан-Хао, Дубровский А.Г., Котов А.В. Русско-китайский словарь. – М., 1953.
12. Цинцус В.И., Бугаева Т.Г. К этимологии названий металлов и их сплавов в алтайских языках // Исследования в области этимологии алтайских языков. – Л.: Наука, 1979. – С. 18-53.

13. Шанский Н.М., Иванов В.В., Шанский Т.В. Краткий этимологический словарь русского языка. – М.: Просвещение, 1971. – 541 с.
14. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – 407 б.
15. Асıpayamlı O. Zanaat Terimleri Sözlüğü. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1976. – 215 s.
16. Lessing F. D. Moğolça-Türkçe Sözlük. I-II. Çeviren: Cünay Karaağaç. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2003. – 1769 s.
17. Phyojungugodesajon (Standart koreys tilining katta izohli lug‘ati). I–III. – Seoul: Tusantonga, 1999. – 7308 p.
18. Ramstedt G.J. Kalmückisches Wörterbuch. – Helsinki: Suomalais-ugrilainen Seura, 1935. – 560 p.
19. Räsänen M. Uralaltaische Wortforschungen // Studia Orientalia. – Helsinki, 1955. – № 18, 3. – P. 130-136.
20. Räsänen M. Versuch eines etymologisches Wörterbuchs der Türksprachen. – Helsinki: Suomalais - ugrilainen Seura, 1969. – 293 p.
21. <http://starling.rinet.ru>